QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.082

MUTOLAA MADANIYATI — ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Abdulxamidova Gulnoza Nasriddin qizi
NamDPI Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
abdulhamidovagulnoza1998@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ochib berilgan. Kitobxonlik kar va zaif eshituvchi bolalarning lug‘at boyligini oshirish, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvidagi asosiy vositalardan biri sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy asarlarni qabul qilishda surdopedagogik yondashuvlar va vizual-interaktiv metodlarning samaradorligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: surdopedagogika, mutolaa madaniyati, ijtimoiylashuv, eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, inklyuziv ta'lim, badiiy adabiyot, kommunikativ ko‘nikma, lug‘at boyligi.

Abstract. This article reveals the socio-pedagogical significance of developing a reading culture in hearing-impaired students. Reading is analyzed as one of the main tools for enriching the vocabulary, developing communicative skills, and successfully integrating deaf and hard-of-hearing children into society. Furthermore, the effectiveness of surdopedagogical approaches and visual-interactive methods in the comprehension of literary works is substantiated.

Keywords: deaf education (surdopedagogics), reading culture, socialization, hearing-impaired students, inclusive education, fiction, communicative skills, vocabulary.

Аннотация. В данной статье раскрывается социально-педагогическая значимость формирования культуры чтения у учащихся с нарушениями слуха. Чтение анализируется как одно из основных средств обогащения словарного запаса, развития коммуникативных навыков и успешной интеграции глухих и слабослышащих детей в общество. Кроме того, обоснована эффективность сурдопедагогических подходов и визуально-интерактивных методов в восприятии художественных произведений.

Ключевые слова: сурдопедагогика, культура чтения, социализация, учащиеся с нарушениями слуха, инклюзивное образование, художественная литература, коммуникативные навыки, словарный запас.

KIRISH. Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimining asosiy maqsadi faqatgina bilim berish emas, balki alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishdan iborat. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiylashuvidagi eng katta to‘siq — nutqiy muloqotning cheklanganligi va buning oqibatida atrof-muhitdan olinadigan ijtimoiy axborotlarning yetishmasligidir. Bu bo‘shliqni to‘ldirishda eng kuchli vosita sifatida kitob va mutolaa madaniyati hisoblanadi. Adabiy ta’lim jarayonida mutolaa madaniyatini rivojlantirish orqali o‘quvchilarda faqatgina o‘qish texnikasi emas, balki insoniy munosabatlar, jamiyatdagi axloqiy me'yorlar va his-tuyg‘ular haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning kognitiv rivojlanishi va nutq egallashi masalalarini L.S. Vygotskiy, R.M. Boskis, S.A. Zikeyev kabi olimlar tadqiq etgan. Mahalliy olimlardan L.R. Mo‘minova, F.U. Qodirovalar kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda maxsus ta'limning o‘rniga alohida urg‘u berishgan. Ammo, aynan mutolaa madaniyatini ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida qo‘llash, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va zamonaviy surdopedagogik yondashuvlar sintezida tadqiq etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, pedagogik eksperiment va ilmiy-nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning badiiy matnni tushunish darajasi va uning ularning xulq-atvoriga va ijtimoiylashuviga ta'sirini o‘rganish maqsadida maktab-internatlarining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida tadqiqot ishlari olib borildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ma'lumotning asosiy qismini vizual ya’ni ko‘rish analizatorlari orqali qabul qiladi. Shuning uchun, ular uchun badiiy adabiyot va matnli kontent hayotiy tajribani orttirishning eng muhim kanali hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, mutolaa madaniyati eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda quyidagi funksiyalarni bajaradi:
1. Emotsional-axloqiy tajribani boyitish: Kar va zaif eshituvchi bolalar ko‘pincha odamlarning his-tuyg‘ularini va nozik kechinmalarini anglashda qiynalishadi. Badiiy asarlar qahramonlarining xatti-harakatlari tahlil qilish orqali o‘quvchi jamiyatdagi "yaxshi" va "yomon", "do‘stlik" va "xiyonat" kabi mavhum tushunchalarni o‘zlashtiradi.

2. Ijtimoiy modellarni o‘zlashtirish: Asarlardagi voqealar rivoji o‘quvchiga turli hayotiy vaziyatlarda qanday yo‘l tutish lozimligi bo‘yicha tayyor "ijtimoiy ssenariy" larni taqdim etadi.

3. Kommunikativ baryerni yengish: Kitob o‘qish orqali lug‘at boyligining oshib borishi o‘quvchiga o‘z fikrlarini yozma va daktil yoki imo-ishora orqali aniqroq ifodalashga yordam beradi. Bu esa sog‘lom tengdoshlari bilan muloqot qilishda o‘ziga ishonchni orttiradi.

Amaliy mashg‘ulotlar va seminarlar jarayonida shu narsa ma'lum bo‘ldiki, mutolaani tashkil etishda vizual qo‘llanmalar, infografikalar hamda axborot texnologiyalaridan masalan, matn mazmunini aks ettiruvchi maxsus veb-dasturlar yoki interfaol prezentatsiyalardan foydalanish badiiy asarni tushunish darajasini 60-70% ga oshiradi. Shuningdek, mutolaa jarayonida murakkab so‘z va iboralarni tushuntirishda professional imo ishora elementlaridan foydalanish o‘quvchining matn mohiyatiga chuqurroq kirib borishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun mutolaa madaniyati oddiy o‘quv faoliyati emas, balki tashqi dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik hisoblanadi. Adabiy ta'lim jarayonida mutolaa madaniyatini rivojlantirish va bu orqali o‘quvchilarning ijtimoiylashuvini jadallashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Badiiy asarlarni eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning qabul qilish xususiyatlariga moslashtirgan holda (adaptatsiya qilib) maxsus xrestomatiyalar yaratish;

- Adabiy o‘qish darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari raqamli ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan, xususan, vizuallashtirilgan va animatsion matnlardan keng foydalanish;

- Maktab-internatlarining kutubxonalarida, axborot-resurs markazlarida zamonaviy kitobxonlik muhitini yaratish, ularga audio-vizual va imo-ishora tiliga o‘girilgan media-mahsulotlarni joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Osnovy defektologii. – SPb.: Lan, 2003. – 654 s.

2. Boskis R.M. Gluxiye i slaboslyshashiye deti. – M.: Sovetskiy sport, 2004. – 304 s.

3. Mo‘minova L.R., Shoxmahmudova N.Sh. Maxsus pedagogika va psixologiya. – T.: "Ilm ziyo", 2014.

4. ABDULKHAMIDOVA, G. DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVE CITIZEN COMPETENCES IN HEARING DISABLED STUDENTS. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 15-16.

5. Abdulxamidova, G. N. (2023). ESHITISHDA NUQSONI BO ‘LGAN O ‘QUVCHILARDA IJTIMOIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO ‘YICHA KORREKSION PEDAGOGIK ISH MAZMUNI VA AHAMIYATI. Экономика и социум, (12 (115)-1), 42-46.

6. Qodirova F.U. Zaif eshituvchi bolalarning nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish. – T.: "O‘qituvchi", 2005.